

- Agar polisiya xodimlari Sizning huquqingizni buzishsa, arizangizni olishni rad etishsa, o'z vazifalarini bajarishmasa, pora talab qilihsa yoki zo'rlik ishlatisha, Siz 112 yo 02 telefoniga yoki RF II Vning «Qaynoq tarmogi – Gorchaya liniya»ga: 8 (800) 222-74-47, II Vning Sankt-Peterburg sh. va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasining "Ishonch telefoni"ga: 8 (812) 573-21-81 qo'ng'iroq qilib, yordam so'rashingiz mumkin.

Agar Sizni Chet ellik fuqarolarni vaqtincha tutib turish markaziga joylashtirishsa, o'z hujjatlarinizi tezroq tiklashda hamkorlik qilishga harakat qiling. Albatta mamlakatinungiz konsuli bilan bog'laning yoki ijtimoiy tashkilotlarga bepul huquqiy yordam uchun murojaat qiling. Sizga ijtimoiy nazorat komissiyasi (INK -ONK) yordam ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy va tibbiy yordam olish

Tez tibbiy yordam olish uchun mobil telefonidan 103 yo 112 raqamlariga qo'ng'iroq qiling. Hayotningiz va salomatligingizga xavf tug'ilgan holatda Sizga bepul tez yordam ko'rsatishlari shart, hatto Sizda tibbyot polisi va hujjatlarinizing bo'lmasa-da!

- Agar tibbiy yordam olishda muammo paydo bo'lsa, Siz Sog'liqni saqlash vazirligining "Goryachaya liniya"sigiga: 8 (800) 200-03-89 va Sankt-Peterburg sog'liqni saqlash komitetining "Goryachaya liniya"sigiga: 8 (812) 63-555-77 qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.
- RF hududida doimiy yashydugan chet el fuqarolari, yashash huquqiga ega bo'lganlar, fuqaroligi yo'q shaxslar va qochqinlar ijtimoiy ko'mak olishlari mumkin. Ijtimoiy ko'mak olish uchun aholini ijtimoiy himoya qilish davlat maqomotlariga murojaat qiling.

Bolalar ta'limi

- Chet ellik fuqarolarning bolalari davlat bolalar bog'chasi va davlat muktabiga bepul borish huluqiga ega. Muktab yoshidagi bolaning ota-onasi qonun bo'yicha uni muktabga berishlari shart.
- Bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun registrasiya joyidagi KVM(MFS)ga murojaat etish zarur. Muktabga joylashtirish uchun O'z rayoningizdagi maorif bo'limi yo muktabga murojaan eting.
- Agar muktabda Sizga rad javobini berishsa, rayon maorif bo'limiga murojaat qilinglar, u erda muktablardan biridan joy berishlari shart.
- Agar bola rus tilini emon bilsa, rus bolalar bilan qiynalib muloqot qilsa, Siz ijtimoiy tashkilotlarga yordam so'rab murojaat qilishingiz mumkin.

Ijtimoiy va madaniy me'yorlar

- Rossiyaga tez o'rganib ketish uchun, Sizga mahalliy aholi bilan ko'proq muloqot qilishni, do'star orttirishni, bayramlarda qatnashishni, kino, muzey, teatr, kutubxonalarda bo'lishni, rus tilini o'rganishni maslahat beramiz.
- Sayt va ilovalar yordamida rus tili bilimingiz darajasini oshiring, masalan: «Rossiya hamma uchun» (o'zbekcha), TORFL GO, pushkininstitute.ru –«Obrazovanie na russkom» portalı. Test topshirishga tayyorlanish uchun mazkur saytlardan foydalinish mumkin: testcons.ru , testmigr.rudn.ru
- Xalqaro mavzudagi tadbirlarni Sankt-Peterburg xalqaro munosabatlar va muhajirlik siyosatini amalga oshirish komiteti, Sankt-Peterburg Millatlar uyi, ijtimoiy tashkilotlar o'tkazadi. Sizga Sankt-Peterburgni tez o'rganish, bizning shahrimiz madaniyati va an'analarini bilib olish va yangi do'star orttirish uchun bu tadbirlarda qatnashishingizni maslahat beramiz.

FOYDALI AXBOROT RESURSLARI

migrussia.ru - «Muhojirlar va muhajirlilik. Mintaqalararo axborot portali»: Huquqiy maslahatlar, moslashish va bepul yordam olishga oid maslahatlar, foydali aloqlar.

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru - Sankt-Peterburgdagagi millatlararo munosabatlar va muhajirlik siyosatini amalga oshirish komitetining muhojirlar uchun internet-resursi.

spbdn.ru – «Sankt-Peterburg Millatlar uyi» SPb DX (davlat xizmatlari)

BEPUL HUQUQIY YORDAM

«PSP-fond» XX (xayriya xazinasi)

Maslahat uchun yozilish: 8 (953) 141-31-09

www.psp-f.org, vk.com/pspfond

Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Буклет «Добро пожаловать в Санкт-Петербург! Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке)

Разработан БФ «ПСП-фонд» на средства субсидии, предоставленной Комитетом по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге на реализацию проекта «Информационная и консультационная поддержка социокультурной адаптации мигрантов в Санкт-Петербурге»



Комитет по межнациональным
отношениям и реализации
миграционной политики
в Санкт-Петербурге



Sankt-Peterburgga xush kelibsiz

Muhojirlar uchun maslahatlar



Sankt-Peterburg
2020

Aziz do'star!

Agar Siz Rossiyaga ishslash uchun kelgan bo'lsangiz, o'z huquq va burchlaringizni bilishningiz juda muhimdir. Mazkur kitobchada biz Cizga foydali maslahatlar berishga intilamiz va huggatlarni rasmiylashtirish, ishga joylashish va Rossiyada yashash uchun ayrim qoidalarni tushunishga yordam beramiz. Sizga muvaffaqiyatlar tilaymiz!

CIZ ROSSIYAGA ISHLASH UCHUN KELGAN BO'LSAHGIZ, NIMA QILISH ZARUR?

1 qadam. Tibbiy polisni rasmiylashtirish

TIBBIY SYG'URTA POLISINI **rasmiylashtiring** (uni o'z vataningizda yoki Rossiyaga kelgan kuningizda har qanday sug'urta tashkiloti, vokzal, Rossiya pochta bo'lmlaridan olishingiz mumkin).

2 qadam. Muhojirlilik qaydiga qo'yish

Muhojirlilik qaydiga qo'ying (**REGISTRASIYADAN O'TING**): o'zingiz yashaydigan manzil bo'yicha - 7 ish kuni davomida (Armaniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston fuqarolari - 30 kun; Tojikiston fu'qarolari - 15 kun). Buning uchun Rossiya IIV Muhojirlilik masalalari bo'yicha boshqarmasi hududiy bo'limga, KVMga uoki Rossiya pochtasiga murojaat qiling. Sizga turar-joy bergen odam Sizni qayddan o'tkazishi zarur.

3 qadam. Ishlash uchun patent rasmiylashtirish

Maxsus test markazlarida rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligini bilish bo'yicha TESTdan o'ting va Siz ishslashga chog'lanayotgan mintaqadagi tibbiyot muassasida TIBBIY KO'RIKDAN o'ting. Kelganingizdan so'ng 30 kun davomida ishslash uchun PATENT oling (agar Siz Armaniston, Belorus, Qozog'iston yoki Qirg'iziston fuqarolari bo'lsangiz, Sizga test topshirish, tibbiy ko'rildan o'tish va patent olish shart emas).

4 qadam. Ishga joylashish

Ish beruvchi toping va u bilan MEHNAT SHARTNOMASI tuzing. Patentni olganingizdan so'ng 2 oy davomida Rossiya IIV Sankt-Peterburg sh. va Leningrad viloyati MMB BBsiga mehnat shartnomasining nusxasini buyurtma xat bilan topshirish bildiruvi bilan jo'nating yoki mehnat shartnomasini shaxsan olib boring, yo'qsa Sizning patentingizni haqqoniy emas deb topishlari mumkin.

5 qadam. Patent haqini to'lash va registrasiyani uzaytirish

Patent haqini o'z vaqtida to'lang va chekni o'zingizda saqlang. Muhojirlilik qaydini (registrasiya) mehnat shartnomasi amal qiladigan muddat uchun (EOISH davlatlari fuqarolari uchun) yoki to'langan patentni muntazam uzaytiring.

MUHIM! Hamma hujjalarni o'zingiz maxsus davar muassasalarida rasmiylashtiring, tanishlar –hamshaharlar, brigada boshliqlari, vositachilaridan yordam so'ramang – ular ko'pincha qalbaki hujjalarni rasmiylashtirishadi, buning uchun Sizni jarimaga tortishlari va Rossiyadan chiqarib yuborishlari mumkin!

FOYDALI MASLAHATLAR

Umumiy maslahatlar

- Muhojirlarga yordam beradigan davlat va ijtimoiy tashkilotlar bilan muloqotlarni bilib oling.
- Siz Rossiyaga kelgan chipta yoki o'tqazish talonini saqlang.
- O'zingiz bilan doim pasport, muhojirlilik kartasi, registrasiya, to'langanligi haqidagi cheki bilan patent, amaldagi tibbiy polisni olib yuring.
- Pasportingizning barcha sahifalari, muhojirlilik kartasi, registrasiya, patent, tibbiy polis, mehnat shartnomasini kseronusxa qildiring.

Muhojirlilik qaydi va patent olish

- Muhojirlilik qaydidan amalda yashayotgan joyda o'tish muhimdir, yo'qsa Sizni jarima qilishlari mumkin.
- Patent faqat maxsus muhojirlilik markazida rasmiylashtiriladi va u olingen PF mintaqasidagina amal qiladi.
- Ish uchun patentning tayyorligi va haqiqiyligi borasida bu saytdan bilib olishingiz mumkin: <https://мвд.рф/сервисы-гувм>. (mvd.rf/servisi-guvm)
- Patent uchun to'lov har bir to'langan muddat tugashidan kamida 1 kun kechiktirilmasdan topshiriladi. To'lovnin ish uchun patent olingen kundan 12 oy muddatgacha oldindan amalga oshirish mumkin.

Mehnatga joylashish

- Faqat rasmiy yozuv shartnomasida to'liq ish haqiga ishlang, yo'qsa sizni aldashlari mumkin.
- Ish izlash uchun rasmiy saytlardan foydalaning, masalan: truvsem.ru
- Vositachilarga murojaat qilmang – ular Sizdan tekin ish kuchi sifatida foydalanshlari mumkin.
- Unutmang, faqat patentda ko'rsatilgan ixtisos bo'yicha va mintaqada ishslash mumkin.
- O'zingiz ishlayotgan tashkilot nomini va manzilini, rahbarining vazifasini, familiyasini, ismini, telefonini bilishingiz muhimdir.
- Pulni Sizning nomingizga ochilgan maxsus bank kartasidan, yoki shaxsan buxgalteriyadan imzo qo'yib, hisob varaqasi bilan oling. Agar ishda Sizdan pul qarz bo'lissa, tilxat talab qiling.
- Imzolayotgan hamma narsangizni diqqat bilan o'qing, Sizga nusxa berishlarini talab qiling. Agar Siz imzolayotgan narsangizdan rozi bo'limasangiz, Siz imzo chekishni rad qilishingiz mumkin.
- Hujjalaringizni hech kimga saqlash uchun bermang: Sizdan boshqa hech kim ularni saqlashi, Sizning harakat erkinligingizni cheklashi, telefoningizni tortib olishi va hokazolarni qilishi mumkin emas. Pasportni musodara qilish va ozodlikni cheklash – jinoyat: bunday holda polisiyaga murojaat qiling!

● Sizning ish joyingiz xavfsiz bo'lishi zarur, Siz kuniga 8 soatdan va haftasiga 40 soatdan ko'p ishslashga majbur emassis, to'liq ishlagan paytingizda Sizning ish haqning minimal hajmidan (MHTM –MROT) (Sankt-Peterburgda 2020-yilda bu - 19 000 rubl) kam bo'limasligi zarur.

● Agar ish haqini 15 kundan ortiq muddatga kechiktirishsa, Siz RF MK 142 m. 2 q.ga ko'ra ish beruvchiga ish haqi berilmagan sababli ishni to'xtatish borasida yozma ariza berish huquqiga egasiz.

Polisiya bilan hamkorlik

- Agar Siz jinouat guvohi yo qurboni bo'lsangiz, Polisiyaga murojat qiling: shaxsan yoki stasionar 02 raqamiga, mobil telefonan - 102 yoki 112 ga, sayt- www.mvd.rph
- Agar polisiya xodimlari Sizga hisoblash malumotlari bazasi bo'yicha hujjat tekshirish uchun yaqinroq polisiya punktiga borishni so'rashsa, Sizga qarindoshlarining yoki do'stleringizga qo'ng'iroq qilishni va qaerdaligingizni va kim bilan gaplashayotganingizni xabar berishingizni maslahat beramiz. Kimdir Sizga nima bo'layotganini bilishi muhimdir.
- Hujjat tekshirish paytda polisiya xodimlari xizmat vazifasini bajarish ustida, polisiya kiyimida bo'lislari zarur va ularda maxsus ko'krak nishoni (jeton) bo'lishi kerak – uni eslab oling va raqamini yozib oling, shuningdek, xizmat guvohnomasini ko'rsatishni so'rang va u bilan tanishing.
- Unutmang: pora berish jinoiy ish sanaladi. Polisiyachilarga pul bermang!
- Agar Sizni ushlashsa, Siz telefonda gaplashish huquqiga egasiz, himoyachi va agar pus tilini yaxshi bilmasangiz, tarjimon talab qilishingiz mumkin. Albatta Sizga ushlash va mamuriy hiquqbazarlikka oid protokol nusxasini berishlarini so'rang. Agar Siz protokol mazmuni billan rozi bo'limasangiz, yozing: «Protokol bilan rozi emasman va nimagaligini ko'rsating. Agar Siz protokolda yozilganini tushunmasangiz, yozing: «Rus tilidagi matnni tushunmayman».
- Agar Sizni polisiyada noqonuniy ushlasha va noqonuniy ushlab turishcha, Ijtimoiy nazorat komissiyasi(INK-OHK)ga murojaat qiling (onkspb.ru, mail@onkspb.ru , 8 (931) 352-06-35). Sud qarorigacha Sizni 48 soatdan ko'p muddatda ushlab tura olmaydilar. Polisiya xodimlari Sizning hujjalaringizni jarima to'lash yo boshqa to'lov uchun garovga olishlari mumkin emas – bu noqonuniy! Jarima faqat sud qarori yo muhojirlbk masalalari bo'limi boshlig' l'qarori bilan chiqarilishi mumkin. Sudda ishingiz ko'rilayotganda albatta qatnashing va qarorni qo'lingizga oling, Siz undan 10 kunlik muddatda shikoyat qilishingiz, yoki 30 kun davomida jarima to'lashningiz mumkin.